

MADANIYATLARARO MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHDA KIYIM-KECHAKKA OID IDIOMATIK BIRLIKLARDAN FOYDALANISH XUSUSIDA

Nazarov P.J.¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada tarkibida kiyim-kechak nomlari bo'lgan turli tillardagi ibora va maqollarning madaniyatlararo muloqotni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, unda ingliz, nemis, rus va o'zbek tillaridagi idiomatik ifodalar semantik jihatdan qiyoslanilgan.

Kalit so'zlar: madaniyatlararo muloqot, ma'naviy qadriyatlar, kiyim-kechak, idiomatik ifodalar, frazeologik birlik, maqol.

doi: <https://doi.org/10.2024/7s9y4364>

Ma'lumki, har qanday kiyim jins, yosh, milliylik va boshqa xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Shu boisdan ham istalgan xalq tomonidan yaratiladigan ma'naviy qadriyatlarda, xususan, xalqning ibora va maqollarida kiyim-bosh tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunisi qiziqki, ayrim kiyim-kechak nomlari bilan hosil qilingan frazeologik birliklar turli tillarda to'liq ma'nodoshlik hosil qiladi. Masalan, turli tillaridagi quyidagi iboralar aynan shunday xususiyatga ega:

ingliz tilida: **to roll up one's sleeves** = nemis tilida: **die Ärmel hochkrempeln** = rus tilida: **засучив рукава** [1] = o'zbek tilida: **yeng shimarib** (ma'nosi: qat'iyatlik bilan; tirishqoqlik bilan) [3].

Yoki, "yubka" Yevropa ayollari kiyadigan kiyim turi bo'lganligi bois, bu so'z ishtirokida hosil qilingan ingliz, nemis va rus frazeologiyalari deyarli bir xil semantik ma'no kasb etadi, ya'ni: ingliz tilida: **to hide behind a mother's skirt**, nemis tilida: **an Mutters Schürzenzipfel hängen**, rus tilida: **держаться за мамину юбку**. [1]

"Yubka" so'zi o'rnida mazkur iboraning o'zbek tilidagi muqobil variantida "etak" so'zi tayanch so'z vazifasini bajaradi: onasining etagidan tutmoq.

Shunisi e'tiborga molikki, kiyim-kechak nomlari bilan bog'liq ibora va maqollar turli til guruhlariga mansub tillarda nafaqat semantik ma'nosi, balki yana tarkibiy tuzilishi bilan ham madaniyatlararo muloqotda o'zaro o'xshashlikka egadir. Masalan, rus tilidagi **"по одежке протягивать ножки"** (so'zma-so'z tarjimasini: kiyimiga qarab oyog'ini cho'zmoq), ingliz tilidagi **"to cut the coat according to the cloth"** (so'zma-so'z tarjimasini: kiyimiga qarab paltoni kesmoq), nemis tilidagi **"sich nach der Decke stricken"** (so'zma-so'z tarjimasini: o'z choyshabiga qarab cho'zilmoq) iboralarini [1] o'zbek tilidagi **"Ko'rpangga qarab oyoq uzat"** maqoli bilan muqobildir. Ko'rinib turibdiki, bu ifodalarning rus va ingliz tillaridagi variantlarida asosiy tayanch so'z sifatida **"kiyim"** atamasi ishlatilgan, uning nemischa va o'zbekcha muqobillarida esa bunday tayanch so'z sifatida kishi uxlaganda ustiga yopadigan buyum turi (nemis tilida: **die Decke**, o'zbek tilida: **ko'rpa**) qo'llanilgan.

Yoki, boshqa bir maqolning bu tillardagi talqiniga e'tibor qarataylik: rus tilidagi **"по одежке встречают, по уму провожают"** (so'zma-so'z tarjimasini: kiyimiga qarab kutib olinadi, aqliga qarab xayrlashiladi), ingliz tilidagi **"good clothes open all doors"** (so'zma-so'z tarjimasini: yaxshi kiyimlar barcha eshiklarni ochadi), nemis tilidagi **"Kleider machen Leute"** (so'zma-so'z tarjimasini: kiyim odamni odam qiladi) ifodalari [1] o'zbek tilidagi "Kiyim

¹ Nazarov P.J., SIUT "O'zbek tili va madaniyati" markazi professori

– odamning ko‘rkidir” [3] maqoliga muvofiq keladi. Mazkur maqollar turli tillarda hosil qilinganiga qaramay, ularning barchasida “kiyim” so‘zidan tayanch so‘z sifatida foydalanilgan.

Kiyim-kechak nomlari bilan hosil qilingan ibora hamda maqollarga e‘tibor qaratar ekanmiz, ularning aksariyatida kishilarning dini, millatidan qat’iy nazar barcha yer yuzi aholisi uchun an’anaviy bo‘lgan kiyim-boshlar, xususan, *shim*, *kuylak*, *tufli*, *paypoq* kabi so‘zlar tayanch so‘z vazifasini o‘tashining guvohi bo‘lamiz. Bir qator tillarda bunday birikmalarning muqobil variantlari mavjuddir. Jumladan, o‘zbek va nemis tillaridagi quyidagi frazeologik va paremiologik birliklar bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

sich ins Hemd / sich in die Hose machen [1] (ma’nosi: seskanib ketmoq, nimadandir qattiq qo‘rqmoq). Bu nemis iborasiga semantik jihatdan juda mos keluvchi frazeologik birlikma o‘zbek so‘zlashuv tilida quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

qo‘rqqanidan ishtonini ho‘l qilib qo‘ymoq.

Yoki: nemis tilida:

die Hosen anhaben (ma’nosi: oilaning boshchisi bo‘lmoq, ishning jilovini qo‘lga olmoq);

o‘zbek so‘zlashuv tilida: *shim* kiyib yurmoq (erkak kishi ekanligining ifodasi sifatida).

Nemis tilida: **die arme Socke sein** (ma’nosi: o‘ta achinarli holga tushmoq);

Mazkur iboraning o‘zbek tilidagi muqobilida ham tayanch so‘z vazifasini “paypoq” so‘zi o‘taydi:

kuni yirtiq paypoqqa qolmoq [3] .

Biz shu narsaning guvohi bo‘ldikki, “cho‘ntak” so‘zi bilan hosil qilingan turli tillardagi ibora va maqollarda bu so‘z bir xil metonimik ma’noga, ya’ni “pul” ma’nosiga ega ekan. Quyidagi jadval orqali biz bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin: [1], [2].

O‘ZBEK TILIDA	RUS TILIDA	NEMIS TILIDA	INGLIZ TILIDA
cho‘ntagi quruq bo‘lmoq	в кармане свистит		
cho‘ntagi quruq	пустой карман	leere Tasche	empty pocket
cho‘ntagi baquvvat;	тугой (толстый) карман	volle Tasche	pockets full of
cho‘ntakka (kistaga) zarar keltirmoq	вытрясти карман; бить по карману; выворотить карман;		to put a hole in one’s pocketbook
cho‘ntagini qappaytirmoq	набивать карман; класть себе в карман	in die eigene Tasche wirtschaften	line one’s own pockets
cho‘ntagida bir miri yo‘q	в кармане пусто	nicht einen Groschen in der Tasche haben	
cho‘ntak ko‘tarmaydi	не по карману		
cho‘ntak (kista) puli (kunlik ehtiyoj uchun ishlatiladigan pul)	карманные расходы	das Taschengeld	pocket expenses; pocket money
o‘z cho‘ntagidan to‘lamoq		aus der eigenen Tasche bezahlen	
cho‘ntagiga urmoq	засовывать в карман	In die Tasche stecken	

Birovning cho‘ntagiga qo‘l solmoq (cho‘ntakkesarlik bilan shug‘ullanmoq)	шарить по карманам = залезать в карман		
---	--	--	--

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har bir xalq tomonidan kiyiladigan milliy kiyim-boshlar o'sha millatga mansub idiomatik birliklar tarkibida ham nisbatan ko'p uchraydi. Shu bilan birga, barcha insonlar uchun umumiy bo'lgan kiyim-boshlar yoki kiyim-boshlarning "yoqa, yeng, cho'ntak" kabi qismlari asosida yaratilgan idiomatik birliklar turli tillarda deyarli bir xil semantik ma'no ifodalaydi va shu sababli madaniyatlararo muloqot jarayonida bunday nutqiy ifodalarni tushunib yetish nisbatan oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Ашуров Ш. Хорижий тилларни ўрганишда маданиятнинг таъсири //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2018. – Т. 3. – №. 2 (67). – С. 10-14.

[2]. Ашуров, Ш. (2022). Хорижий тилларни о'qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati. Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 294–296. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12979>

[3]. Галиуллина М.Д. Юсупова Л.Г. Фразеологические единицы с компонентом «одежда» в русском, английском и немецком языках <https://core.ac.uk>

[4]. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 408 б.

[5]. Frühauf M., Nazarov P.J. Abenteuer Redensarten (nemischa-o'zbekcha frazeologik lug'at), -Samarqand: SamDChTI nashri, 2024, -262 b.